



UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISH BOSHQARUVIDA RAQADMLI TEKNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISHNING AFZALLIKLARI

Achilova Firuza Kurbanovna

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Qarshi filiali i.f.f.d., PhD*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada "Digital communal" platformasini uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqaruvida tadbqiq etishga bag'ishlangan bo'lib, platformaning funksional imkoniyatlari, interaktiv xizmatlari haqida ma'lumot berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamli kommunal xizmatlar, uy-joy kommunal, platforma, xizmat ko'rsatish, boshqarish, raqamlashtirish, zamonaviy texnologiyalar, samaradorlik.*

Аннотация: *Данная статья посвящена внедрению платформы «Digital communal» в управление жилищно-коммунальным хозяйством и содержит информацию о функциональных возможностях платформы, ее интерактивных услугах.*

Ключевые слова: *цифровые коммунальные услуги, жилищно-коммунальные услуги, платформа, сервис, управление, оцифровка, современные технологии, эффективность.*

Annotation: *This article is devoted to the introduction of the platform "Digital common" in the management of housing and communal services, and provides information about the functional capabilities of the platform, interactive services.*

Key words: *digital utility services, housing and communal services, platform, service, management, digitization, modern technology, efficiency.*

Kirish. Jahon iqtisodiyoti global pandemiya sharoitida tarmoqlarning o'zgarishi, bu jarayonning raqamlashuvi, mobillashuvi, barcha sohalarga sun'iy intellektning joriy etilishi bilan bog'liq muhim davrni boshdan kechirmoqda. BMT tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2030 yilga kelib, dunyo bo'yicha yalpi ichki mahsulotning qariyb chorak qismi raqamli texnologiyalarga bog'liq bo'lib qolishi prognoz qilinayotgan hozirgi sharoitda, bu yo'nalishdagi ishlarni jadallashtirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish eng to'g'ri strategik yo'nalish hisoblanadi.


Bugungi kunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini turli sohalarda tadbqiq etilishi, sohaning ish samaradorligini oshishida, resurslarni tejashida, ortiqcha mablag'larni sarf bo'lishini oldini olish, vatqni tejashiga erishish, aholi uchun qulay bo'lgan xizmatlarni tashkil etish, istalgan masofadan buyurtmalarni berish, axborotlarga raqamli ishlov berish kabi vazifalarni amalga oshirishda xizmat qilib kelmoqda.

Asosiy qism. Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqaruvini raqamlashtirishda bir qator axborot tizimlari, intellektual tizimlari, qaror qabul qilish tizimlari, ekspert tizimlari, monitoring tizimlari kabilaridan foydalanish mumkin [1].

Hozirgi kunga qadar soha boshqaruvini raqamlashtirishda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, <https://kommunal.uz> - O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi rasmiy sayti, <http://ek.uz> - kommunal xo'jalik va uy-joy fondi portali, <https://users.mjko.uz> - "Mening uyim" axborot tizimi (Ko'p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimi), <https://my.gov.uz> - Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida "Kommunal xizmatlar" faoliyat olib bormoqda. Bundan tashqari Zoomrad, Payme, Apelsin, UzKommunal, Paynet, Click Evolution, Upay kabi mobil ilovalar ham aholi uchun xizmat qilmoqda.

Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqaruvini raqamlashtirishda birinchi navbatda mukammal strukturaga ega bo'lgan ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish lozim. Ma'lumotlar bazasi yordamida uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqaruvi portalini ishlab chiqish mumkin. Bunda, hududlar, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, ko'p qavatli uy-joylar, aholi qatlami, jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, interaktiv xizmatlar, xizmat ko'rsatish turlari, xizmat ko'rsatish jadvali, bog'lanish kontaktlari, kommunal to'lovlari narxlari kabi ma'lumolardan iborat bo'ladi.

Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasida ham bir qator zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tadbiiq etib kelinmoqda. Qashqadaryo viloyati Shahrizabz tumani qishloq joylarida uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqaruvini raqamlashtirish maqsadida Digital Communal platformasi ishlab chiqildi.



Rasm 1. Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqaruvi platforma ma'lumotlar bazasini tashkil etishning algoritmi.



Platforma orqali monitoring olib borish, hududlar kesimida muammo va kamchiliklarni aniqlash, qarzdorlik holatlarini tahlil qilish, ushbu ma'lumotlar asosida xulosa chiqarish va masalaning yechimi bo'yicha tegishli qarorlarni qabul qilish mexanizmi ishlab chiqiladi.

“Digital Communal” platformasi bir qator funksional imkoniyatlarga ega:

- ✓ Ma'lumotlarni qidirish;
- ✓ Real vaqt rejimida xabar alamashinish;
- ✓ Audio muloqot qilish;
- ✓ Video muloqot qilish;
- ✓ Call center xizmatidan foydalanish;
- ✓ Buyurtma berish;
- ✓ Xizmatlar yuzasidan fikr bildirish;
- ✓ Hududlar kesimida xizmat ko'rsatish obyektlarini haqida ma'lumot olish;
- ✓ Xizmat ko'rsatuvchini oldindan band qilish;
- ✓ Online navbatda turish;
- ✓ Tezkor yangiliklar bilan tanishib borish;
- ✓ Yangi qo'shilgan xizmatlar haqida xabardor qilish;
- ✓ Moslashuvchan interfeysga ega;
- ✓ Narxlar, xizmat ko'rsatish vaqti jadvalining mavjudligi;
- ✓ Ijtimoiy sahifalariga to'g'ridan-to'g'ri ulanish va h.k.

Bundan tashqari platformaning mobil ilovasi ham ishlab chiqildi. Digital Communal mobil ilovasining mavjud bo'lmaganligi sababli mobil ilovaning yangi zamonaviy texnologiyalar asosida, zamon talablari darajasidagi, tasdiqlangan va tekshirilgan ma'lumotlar bilan to'ldirilgan *.apk fayl formatlari ishlab chiqilishi va amaliyotda tadbiiq etilishi, soha xodimlarining va mustaqil foydalanuvchilarning kommunal sohasi haqida axborot olishga, tasavvurga ega bo'lishiga, istalgan Android platformasidan foydalana olishga bo'lgan ehtiyojini qondirishda xizmat qiladi.

Bugungi kunda har bir sohada boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish, raqamli texnologiyalarini tadbiiq etish dolzarb masalalardan biridir. Boshqaruv jarayonlarida raqamli texnologiyalarining joriy etilishi ish unumdorligining o'sishiga, ortiqcha xarajatlarning qisqarishiga, vaqtning va resurslarning tejaliishiga, sifatning o'sishiga erishish mumkin. Soha boshqaruvida raqamlashtirish jarayonlari qisman tadbiiq etilgan, ammo qoniqarli darajada emas hamda keng qamrovli tashkil etilmagan. Hozirga qadar aholi navbatga turish, ortiqcha vaqt sarflash, resurslarning isrof bo'lishi kabi muammolarga duch kelmoqda.

Xulosa. Demak, yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, foydalanuvchilar o'ziga kerakli bo'lgan xizmat turini tanlaydi, xizmat muddatini, narxini, kerak bo'ladigan xujjatlarni, qaysi tashkilotga murojaat qilishi, bog'lanish kontaktlari, xizmatdan foydalanuvchilar, xizmat ko'rsatishning huquqiy asoslari kabi ma'lumotlarni platforma orqali istalgan vaqtda, istalgan joydan olish imkoniyati



mavjud bo'ladi. Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqaruvini raqamlashtirish sohaning yanada samaradorligini oshirishda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- [1] S.S.G'ulomov, R.X.Alimov. Axborot tizimlari va texnologiyalari, Darslik, Toshkent, 2000.
- [2] Ш.Арте. Структурный подход к организации баз данных. М.: Финансы и статистика, 2010.
- [3] А.Алексеев, Введение в Web-дизайн. Учебное пособие. – М.: ДМК Пресс, 2019.
- [4] Peters T. The circle of innovation. USA, NY: Alfred A. Knopf, 2006.